

MAHALLA TIZIMIDA IJTIMOYIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883288>

Karjabova Xurshida

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Raqamli iqtisodiyot kafedrasida assistenti

Tuxtamishev Abduxoliq

4-kurs talabasi

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma'naviy sohalarida taraqqiyot va yangilanishning o'ziga xos hamda o'ziga mos yo'lini tanladi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdik. Vatanimizda sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarga o'z qobiliyati va iste'dodlarini namoyon qilish, yaratish, bunyodkorlik bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha "Mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla" tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli "ko'prik" bo'lishini amalga ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, mahallalarda infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida ijtimoiy xizmatlar – insonlarning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalaridagi ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. O'z navbatida, insonlarning turmush tarzini yaxshilanishi ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishini talab qiladi. Ijtimoiy xizmatlarni insonlar tomonidan baholanishi asosan ularning sifat xususiyatiga e'tibor qaratishdan boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish davlat xarajatlarini doimiy ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishda davlat mablag'laridan samarali foydalanishni zaruruat etadi. Ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni isloh qilish orqaligina, davlat tomonidan ayni shu masalalarga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larni samarali ishlatishga erishish mumkin. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini isloh qilishda innovatsion yondashuv asosida xorijiy tajribalardan maqbul foydalanish lozim.

Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, mahallada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush tarzini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 12-martda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni¹⁴³

¹⁴³ <https://lex.uz/docs/5758437>

e'lon qilindi. Unga ko'ra, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko'maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligi darajasini oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag'allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o'rinlarda – mahallalar) tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etildi.

Quyidagilar hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

– mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

– tadbirkorlik subyektlarining biznes loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish, mavjud muammolarini “mijozbay” o'rganish hamda hal etish orqali tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam ko'rsatish, mavjud instrument va resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish;

– mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

– doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

– mahallalarda “lider tadbirkor”lar va xonadonlar o'rtasida iqtisodiy kooperatsiyani kengaytirish orqali aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlash choralari ko'rish;

– “Ijtimoiy shartnoma” tizimi orqali tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan fuqarolarga, jumladan ayollar va yoshlarga kredit hamda subsidiyalar taqdim etish;

– mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga birlashtirish;

– tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo‘sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish.

“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2022-yil respublikamizda yoshlar siyosati sohasiga tub burilish yili bo‘ldi. Jumladan, mamlakatimizda yoshlar bilan “Mahallabay” ishlash, ularning bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha mutlaqo yangicha tizim yo‘lga qo‘yildi. Xususan, joriy yilning 19-yanvarida «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi o‘zbekiston respublikasi Prezidentining PQ-92-son Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

1. Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o‘rinlarda – mahalla) yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

2. Quyidagilar mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib belgilandi:

– “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

– mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

– yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

– yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash;

– huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

Shuningdek, 2022-yilning 1-avgustiga qadar Yagona ijtimoiy himoya reestri doirasida “Mahallada ijtimoiy xizmat ko‘rsatish” modulini joriy etish rejalashtirilgan bo‘lib, faol xotin-qizlarning modul bilan ishlashi uchun xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi ishtirokida “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash” loyihasi doirasida imtiyozli kreditlar berish nazarda tutilgan.

Mahallalardagi yoshlar bilan tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida viloyatdagi

1126 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi Yoshlar yetakchisi¹⁴⁴ lavozimiga nomzod sifatida vacancy.argos.uz platformasi orqali jami 5640 nafar fuqarolardan arizalardan 1126 nafar yoshlar yetakchilari saralanib olindi¹⁴⁵ va ular hozirda mahallalarda faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda mahalla tizimida aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini tadqiq qilish, mahallalardagi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining tadbirkorlik faolligini ta'minlash, nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilish va mahallalarda iqtisodiy faol aholining bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish, ishlashga muhtojlarni zarur mehnat qurollari bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli dasturlar asosida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, bu mahallalarda aholining pul daromadlarining o'sishini ta'minlaydi.

Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shni davlatlar tajribasiga nazar solsak, Qozog'istonda ehtiyojmand oilaga kafolatlangan pullik yordam tayinlanadi, bunda uning mehnatga layoqatli a'zolari "shaxsiy ish reja"larini to'liq bajarishi va daromadlarining o'zgarishi bo'yicha konsultantni habardor qilib borishi belgilangan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida ehtiyojmand fuqaro shartnoma majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarsa, keyingi bosqichdagi huquqlari kengaytiriladi. Mablag'lardan maqsadsiz foydalanilsa, ularni to'liq qaytarish majburiyati fuqaroga yuklangan.

Finlyandiya iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lib, unda ehtiyojmand mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlash maqsadida kasbga o'qitadi. Ishsizlik nafaqasini olayotgan fuqaroga taklif etilgan ishni inkor qilsa, to'lanayotgan ishsizlik nafaqasi 20,0 %ga, agar bu holat takrorlansa 40,0 %ga kamaytiriladi. Iqtisodiyot va ish bilan bandlik markazlari milliy mehnat bozoridagi holatni barqarorlashtirish uchun katta rol o'ynaydi, ya'ni markaz ishlovchilarning tayyorgarlik darajasini oshirib, ish beruvchilar talabiga mos kadr-mutaxassislarni tayyorlab beradi. Ish beruvchilar, mahalliy hokimiyat, o'quv yurtlari va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda markazlar kasbiy mahorat va malakani oshirishga bo'lgan istiqbolini ishlab chiqadi, korxonalar talablaridan kelib chiqqan holda kasbiy mahoratni oshirish va qo'shimcha tayyorgarlikni tashkil etadi. Iqtisodiyot va ish bilan bandlik markazlari aholini malakasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni moliyaviy ko'mak berishni (moliyalashtirish) amalga oshiradi. Markazning ishchi kuchi bo'lishi korxonalar talabnomasi asosida ishlovchilarni testdan o'tkazish orqali mehnat birjalarini


¹⁴⁴ <https://lex.uz/uz/docs/5831865>

¹⁴⁵ <https://vacancy.argos.uz/>

boshqarishda bevosita ishtirok etadi. Bundan tashqari markazlar o'z ishini dastlabki boshlovchi tadbirkorlarga boshlang'ich kapitalni ajratish bilan shug'ullanadilar. Ish bilan bandlikni kengaytirishga ko'maklashuvchi davlat loyihalarini ishlab chiqish va moliyalashtirishdan tashqari markazlar mehnatkashlarning manfaatlarini himoyalash vazifasini, immigrantlar va qochoqlar yashash sharoitini va mehnat ko'nikmalarini (o'qitish orqali) qo'llab-quvvatlash vazifalarini ham bajaradi.¹⁴⁶

Respublikamiz mahallalarida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda ijtimoiy shartnoma tuzilib, unda oila a'zolarining soni va oilaning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi (3.2-rasm). Bunda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish vositalari

to'g'ridan-to'g'ri moddiy yordam ko'rsatish, aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, dastlabki kapitalni shakllantirishdan iboratdir.




1-rasm. Mahallalarda oilalarni “ijtimoiy shartnoma” orqali manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi¹⁴⁷

Mahallada ijtimoiy xizmatlar tarkibi quyidagilardan iborat: kasbga o'qitish va zarur mehnat qurollari bilan ta'minlash; yengil konstruksiyali issiqxonalar qurib berish; ijtimoiy nafaqalar to'lash (14 yoshgacha); issiq kiyim-bosh bilan ta'minlash; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mahallada ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

¹⁴⁶ Финляндия: центры экономики и занятости – катализаторы развития предпринимательства и рынка труда. // Человек и труд. – 2003. – №1. – С.31.

¹⁴⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.



3.3-rasm. «Onlayn mahalla» platformasining integratsiyasi¹⁴⁸

2-rasm. «Onlayn mahalla» platforma

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida yuqori texnologiyalarni ommaviy joriy etish, ijtimoiy xizmatlarning transformatsiyalashuviga olib keluvchi yangi, zamonaviy xizmat ko'rsatish shakllarining paydo bo'lishi va ijtimoiy xizmatlar bozorida yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunda «Onlayn mahalla» platformasining integratsiyasini shakllantirish orqali raqamli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar bozorini diversifikatsiyalash uchun zamin yaratadi.

Respublikamizda mahalla tizimida «Onlayn mahalla» platformasining integratsiyasini shakllantirishning maqsadi – aholini ortiqcha sarson qilmasdan “Mahalladan chiqmay turib barcha xizmatlardan foydalanish” tamoyili asosida davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni taqdim etilishiga imkon yaratadi.

«Onlayn mahalla» platformasining integratsiyasini amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat: hokim yordamchilarini planshetlar bilan ta'minlash; «Onlayn mahalla» platformasi yaratish; barcha hokim yordamchilarini o'qitish va ularning faoliyati monitoring qilish va mehnati doimiy rag'batlantirib borish.

«Onlayn mahalla» platformasi orqali murojaat qilish shakllari mobil telefondan maxsus ilova yoki SMS orqali, hokim yordamchisiga murojaat qilish hamda davlat xizmatlari markaziga borib murojaat etish orqali amalga oshirishdan iborat. Bunda erishiladigan natijalar byurokratiya va ovoragarchilikning oldi olinib, ortiqcha vaqt

¹⁴⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sarfi va xarajatlar tejaladi hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishning shaffofligi ta'minlanadi.